

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ



БИООРГАНИК КИМЁ ФАНИ  
МУАММОЛАРИ  
IX РЕСПУБЛИКА ЁШ КИМЁГАРЛАР  
КОНФЕРЕНЦИЯСИ  
МАТЕРИАЛЛАРИ

II ТОМ

26-27 апрел  
2019 йил

## MUNDARIJA

KIMYO FANINI O'RGANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH NATIJALARI <i>Ajiniyazova Sh.S., Bekpolatova B.M., Shiknazarov A.T.</i> .....	8
MAKTABDA ORGANIK KIMYO FANINI O'QITISHNING O'YINLI METODLARI <i>Ajiniyazova Sh.S., Bekpolatova B.M., Sultanov A.A., Sarsenov Q.K.</i> .....	9
MAKTABLARDA «AROMATIK UGLEVODORODLAR» MAVZUSINI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH <i>Ajiniyazova Sh.S., Bekpolatova B.M., Sultanov A.A., Sarsenov Q.K.</i> .....	10
FIZIK JARAYONLARNI MODELLASHTIRISH <sup>1</sup> <i>A.A. Temirov, <sup>2</sup>A.A. Sohibiddinov, <sup>3</sup>R.H. Salimova</i> .....	12
BIOLOGIK JARAYONLARNI MODELLASHTIRISH <sup>1</sup> <i>A.A. Temirov, <sup>2</sup>A.A. Sohibiddinov, <sup>3</sup>R.H. Salimova</i> .....	14
ХУШБҮЙ МОДДАЛАР КИМЁСИ <i>Қодирова З.К.</i> .....	16
✓CHOY – KOFEINNING ASOSIY TABIIY MANBAI <i>Z.K.Qodirova, M.Y.Ergashov, M.K.Ochilova</i> .....	17
YALPIZ O'SIMLIGI TARKIBIDAGI MONOTERPENNING XOSSALARI. <i>L.A. Yettiboyeva, Z.T.Xalmuratova</i> .....	19
МЕНТОЛНИНГ БАЪЗИ КИМЁВИЙ ХОССАЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ <i>Еттибоева Л.А., Абдурахманова У.К.З.Т.Холмуратова</i> .....	20
MAHALLIY ARZON XOMASHYOLAR TARKIBIDAGI MIKROELEMENTLAR <i>Z.Otaxanova, G.Ishaqova, Sh.Qodirova, X.Axipova</i> .....	21
ЗНАЧЕНИЕ ЛЕСА В ЭКОЛОГИИ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ <i>Джаббарова Г.М.<sup>1</sup>, Мухторов А.А<sup>2</sup>.</i> .....	25
KISLOTALAR EKVIVALENTINI TOPISHDA JADVALLAR TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI <i>Ganiyev B.Sh., Norqulova D.R.</i> .....	25
ШИМОЛИЙ ФАРГОНА АДИРЛАРИДА ЭКОЛОГИК БАРҚАРОЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ (ЧУСТ – ПОП АДИРЛАРИ МИСОЛИДА ) <i>И момов Отабек Нормирзоевич</i> .....	27
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДАГИ БОЛАЛАРНИ ОВҚАТЛАНИШИГА ГИГИЕНИК ИЗОХ	

мавжуд бўлиши ҳиднинг сифатига кучли таъсир кўрсатади. Нормал тузилишли углерод занжирига эга бўлган хушбўй моддалар ҳиди жиҳатидан уларнинг аналоги бўлган тармоқланган занжирили углерод атомлари бирикмаларидан, айниқса учламчи углерод атоми мавжуд бўлганларида кучли фарқ қилиши айтилган.

Шунингдек, хушбўй модда молекуласида функционал гурухнинг мавжудлиги ва жойлашган ўрни ҳам унинг ҳидининг йўналиши ва кучига таъсир кўрсатади. Функционал гурухнинг киритилиши бирикма ҳидининг кучини кўпинча сусайтиради, бу гурухни этерификациялаш эса ҳиднинг кучини қайта тиклайди. Айниқса, карбонил гурух  $>\text{C}=\text{O}$  нинг мавжудлиги ҳидга таъсир кўрсатади. Углерод атомларининг сони аниқланган чегара (мейёр)дан юқори бўлса, ҳиднинг пасайиши ёки йўқолишига олиб келади. Ҳалқали бирикмаларнинг ҳиди уларга бирор бир гетероатом киритилганда кучаяди. Иккита бир хил функционал гурухнинг иштироқи кўпинча ҳиднинг пасайишига олиб келади. Хушбўй моддалар молекулаларининг тури изомер шакллари ҳиднинг кучи ва хусусиятига жиҳдий таъсир қилиши айтилади.

Озиқ-овқат араматизаторлари ва мева ҳамда резавор мевалар эссенциялари –хушбўй моддаларнинг спиртли эритмалари, ҳўл ва резавор меваларнинг экстрактларини ўзида касб этади. Улар озиқ-овқат маҳсулотларига таъм ва аромат бериши учун ишлатилади.


Асосий хушбўй моддаларга ионон, иралия, цитронелло, линалилацетат, гидроксицитронеллаль, гелиотропин, метилантранилат, ванилин, терpineол ва унинг ацетати, амбар мушки, бензил спирти ва унинг ацетати, фенилэтил спирти, изоамилсалацилат, дифенилоксид, изоэвгенол, этиллауринат, ментол, обепин, мураккаб эфирлар, санталидол ва бошқаларни киритиш мумкин.

### **CHOY – KOFEINNING ASOSIY TABIIY MANBAI** **Z.K.Qodirova, M.Y.Ergashov, M.K.Ochilova**

*Bux DU*

Kofein – insoniyatga juda qadim zamondan ma'lum bo'lgan psixofaol moddalardan biridir. Insonlar tarkibida kofein saqlagan mahsulotlarni o'sha vaqtlardan boshlab iste'mol qilib kelishgan. Xitoy afsonalarida aytilishicha, choy barglaridan olingan ichimlik, bizning eramizdan 3000 yil oldin ma'lum bo'lgan. Eramizdan oldingi VI asrda Mayya hindulari foydalangan ko'zachalardan kakao qoldiqlari topilgan. Aniq ma'lumotlarga asosan Yamanda kofening iste'mol qilinishi eramizning XV asriga to'g'ri keladi.

Butun jahon sog'lioni saqlash tashkilot tahliliga ko'ra hozirgi davrda sayyoramizning 90 % aholisi sutkasiga 1 martadan kam bo'limgan holda kofein iste'mol qiladi.



Kofeining tuzilish formulasi

Guarana (*Paullina cupana*) – doimiy yashil tusli liana, Janubiy Amerikada o'sadi. Guarana urug'idan kofega o'xshagan ichimlik tayyorlashadi. Kofein qutbli organik erituvchilar (spirtlar, xlororganik birikmalar)da yaxshi eriydi. Kofeining suvdagi eruvchanligi 20° C da 100 ml da 2,17 gr dan, 100° C da 100 ml suvda 20 gr gacha o'zgarib turadi. Boshqa alkaloidlarga o'xshab, kofeining suvdagi eruvchanligi kislotali muhitda oshib boradi. Kofein 230-240°C da haydaladi.

Kofein bir qator o'simliklar tarkibida bo'ladi. Ular orasida choy, kofe, kakao, mat (paragvay choyi), guarana va boshqalar bor. Tabiatdagi kofeining boy bo'lgan manba – guarana donlari bo'lib, u quruq massasiga nisbatan 7,5 % kofein saqlaydi. Guarana (*Paullina cupana*) – doimiy yashil tusli liana, Janubiy Amerikada o'sadi. Guarana urug'idan kofega o'xshagan ichimlik tayyorlashadi. Bizning kengliklardagi choy esa eng ko'p kofeinni o'zida saqlaydi. Choyning quruq barglarida massa jihatdan 2 – 4 % kofein bo'ladi. Ayrim choy navlarida 5% kofein mavjud. Solishtirib ko'rilsa kofeining boy mahsulotlar ichida choy eng arzoni hisoblanadi.

Choydan kofein ajratib olish, to'rtta asosiy bosqichdan iboratdir. Bular choy barglarini issiq suv bilan ekstraksiyalash, olingan ekstraktni ortiqcha moddalardan tozalash, xloroform bilan ekstraksiyalash va hosil qilingan xom ashyoni haydash yo'li bilan tozalashdir. Tajribani quyidagicha olib borish mumkin.

Kukun holatigacha maydalangan choyga magniy oksidining quyqasi (150 ml suvda 25 g MgO), 250 ml suv quyilib 10-15 minut qaynatiladi. Suvli eritma doka qatlami (tampon) orqali o'tkaziladi. Qaynatish jarayoni yana 2 marotaba 150 ml toza suv bilan qaytariladi. Yig'ilgan suv eritmasini 25 ml suyultirilgan sulfat kislota bilan (kongo yordamida kislotali sharoiti tekshiriladi) kislotali muhitga keltiriladi va uchdan bir qismigacha suv

hammomida bug'latilib quyuqlashtiriladi. Issiq holdagi eritma burmali fil'trdan o'tkaziladi va 5 marta xloroform bilan ekstraktsiya qilinadi. Har bir ekstraktsiya jarayoni uchun 30 ml dan erituvchi sarflanadi. Xloroformli ekstraktni avvalo bir necha ml suyultirilgan ishqor, so'ngra shuncha miqdordagi suv bilan yuviladi. So'ngra erituvchi suv hammomida haydaladi. Qoldiqdan tozalanmagan kofein olinadi va 8-10 ml qaynoq suvdan qayta cho'kmaga tushuriladi. Unumi 0,8 – 1 g.

Sifat reaksiyalari. 10 mg kofeininga 10 tomchi 5 %-li vodorod peroksid, 1 tomchi 25 % li xlorid kislota quyiladi va suv hammomida bug'latiladi. Qoldiq ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi shu zahotiyoy ozgina miqdordagi ammiakning suvli eritmasi (tetrametilosantinning ammoniyli tuzi hosil bo'lganligini isbotlash uchun) bilan namlanadi. Bunda qirmizi rang hosil bo'ladi. Ikkinchisi qismiga uch tomchi suv va 5 ml kofein qo'shiladi. Bunda to'q zangori-ko'k rang hosil bo'ladi.

Kofein tibbiyotda yurak faoliyatini qo'zg'atuvchi modda sifatida ishlatiladi. Ko'k choy tarkibida kofein borligi uchun miya faoliyatini yaxshilaydi va tetiklashtiradi.

## YALPIZ O'SIMLIGI TARKIBIDAGI MONOTERPENNING XOSSALARI.

L.A. Yettiboyeva, Z.T.Xalmuratova

Guliston davlat universiteti. [lola1981a@mail.ru](mailto:lola1981a@mail.ru), +998974948134

Tarkibida monosiklik monoterpenlar bo'lgan, o'simliklardan asosan dorivor xususiyatga ega bo'lib, bu guruhga kiradigan o'simliklar efir moylarining asosiy tarkibiy qisimlariga mentol, tsineol, limonene, pulegon, menton, karbon va boshqa birikmalar hisoblanadi. Bulardan hozirda keng qo'llanib kelyotgan monoterpen- mentol bo'lib, u yalpiz efir moylari tarkibidan ajratib olinuvchi organik modda bo'lib, 80% ko'p foizini tashkil etadi va gidrofob moddaga kiradi. "Mentol" nomining o'zi ikkita lotinchadan kelib chiqqan: "mentha"- "yalpiz" va "oleum"- moy degan ma'noni anglatadi. U achchiqroq muzlatuvchi tamli rangsiz kristall modda bo'lib, suvda juda kam eruvchan, spirt, efir va sirka kislotalarida tez eruvchan, yog'li moylarda esa ason eriydi. [1]

Shuningdek mentol va uning efir moylari saqlangan dorilar shamollash, muskullarni og'rig'i, charchashlar, revmatizim, yutallarni oldin olishda ham qollaniladi. Hozirda kosmetik preparatlar, tish pastalar, farmaseftikalarda ishlab chiqarishda asosiy rol oynaydi.

Mentolni 1973-yildan boshlab buyon sintetik tarzda ishlab chiqarilgan. Kimyoviy jihatidan spirtli guruhga ega siklik uglevodorod. Mentolni ajratib